

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI  
SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN UROLOGIYA ILMIY-AMALIY  
TIBBIYOT MARKAZI**

**«URETRIT» NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK  
PROTOKOLLAR**

Toshkent – 2025

“KELISHILDI”

O'zbekiston Respublikasi

Ixtisoslashtirilgan

urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot

markazi direktori

Sh.T. Muxtarov



“ “ ” 2025 yil

«URETRIT» NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK  
PROTOKOLLAR

Toshkent – 2025

**«URETRIT» NOZOLOGIYASI DIAGNOSTKASI VA DAVOLASH  
BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR**

Toshkent – 2025

## 1. KIRISH

Ushbu klinik protokollar Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIUIATM), “O‘zbekiston urologlar ilmiy jamiyati”, “O‘zbekiston bolalar urologlari jamiyati” va Toshkent tibbiyot akademiyasi mutaxassislari tomonidan Yevropa urologlar assotsiatsiyasi (EUA)ning ko‘rsatmalari, tavsiyalari va ma'lumotlari asosida ushbu soha olimlari tomonidan ishlab chiqilgan.

Mualliflar guruhi xalqaro ekspertlarning fikrlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi va klinik protokollar nashr etilgan vaqt holatiga tajribali mutaxassislar uchun eng to‘g‘ri va qulay ma'lumotlarni taqdim etishini ta'kidlash zarur deb hisoblaydi. Ular muayyan bemorni davolash taktikasini aniqlashda klinik tajribaning o‘rnini bosa olmaydi, ammo bemorning o‘ziga xos xususiyatlari va istaklarini hisobga olgan holda tanlovni amalga oshirishda yordam beradi.

Milliy klinik protokollar MKB-10 – N34.0 va MKB-11 – GC02 shifriga muvofiq Uretrit diagnostikasi, rehabilitatsiyasi va profilaktikasi bo‘yicha qo‘llanma hisoblanadi.

Ulardan Respublikaning barcha tibbiyot davolash-profilaktika muassasalarining urologlari foydalanishlari mumkin.

### Kasalliklarning xalqaro tasnifi kodlari – MKB-10/11:

MKB-10	
Kod	Nomi
N34	Uretrit va uretral sindrom <a href="https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34">https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34</a>
N34.0	Uretral abscess (xo‘ppoz) <a href="https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34.0">https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34.0</a>
N34.1	Nospetsifik uretrit <a href="https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34.1">https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34.1</a>
N34.2	Boshqa uretritlar <a href="https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34.2">https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34.2</a>

N34.3	Aniqlanmagan uretral sindrom <a href="https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34.3">https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N34.3</a>
-------	---

<b>MKB-11</b>	
<b>Kod</b>	<b>Nomi</b>
<b>GC02</b>	<b>Uretrit va uretral sindrom</b> <a href="https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1092991948">https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1092991948</a>
GC02.0	Uretral abstsess (xo‘ppoz) <a href="https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1037488079">https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1037488079</a>
GC02.1	Nospetsifik uretrit <a href="https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1037488079">https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1037488079</a>
GC02.Y	Boshqa aniqlangan uretrit va uretral sindrom <a href="https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1092991948%2Fother">https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1092991948%2Fother</a>
GC02.Z	Aniqlanmagan uretrit va uretral sindrom <a href="https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1092991948%2Funspecified">https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1092991948%2Funspecified</a>

### **Milliy klinik protokolni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish sanasi**

Milliy klinik protokol 2025 yilda ishlab chiqilgan. Protokol har 5 yilda yoki diagnostika, davolash, reabilitatsiya va profilaktikaning isbotlanganlik darajasi o‘zgarganda ko‘rib chiqiladi.

## **Milliy klinik protokolni ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa**

Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIUIATM).

### **Ishchi guruh a'zolari va mualliflar:**

**Giyasov Shuxrat Iskandarovich** - Toshkent tibbiyot akademiyasi urologiya kafedrası professori, t.f.d., professor.

**Nadjimitdinov Yalkin Saidaxmatovich** – Toshkent tibbiyot akademiyasi urologiya kafedrası dotsenti. t.f.n., dotsent.

**Zokirov Xayot Komilovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining davolash-diagnostika bo‘limi mudiri.

### **Taqrizchilar:**

**Perepanova Tamara Sergeyevna** – Rossiya sog'liqni saqlash vazirligining N.A. Lopatkin nomli urologiya va intervension radiologiya ITI – FDBM Radiologiya «MTTM» filiali infeksiyon-yallig'lanish kasalliklari va klinik farmakologiya guruhi mudiri, Rossiya urologlari jamiyatining faxriy a'zosi, Yevropa urologlari assotsiatsiyasi Urologik infeksiyalar seksiyasi faxriy a'zosi, t.f.d., professor.

**Mirhamidov Jalol Xalilovich** – t.f.n., Toshkent tibbiyot akademiyasi urologiya kafedrası dotsenti.

### **Milliy klinik protokol loyihasining muhokamasi.**

Milliy klinik protokoli Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Ilmiy kengashining 2025 yil \_\_\_\_\_ sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

### **Milliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo'yicha ekspert xulosasi va tahrirlash:**

**Kariyev Saidaxror Saitaslanovich** – t.f.d., Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi urologiya kafedrası dotsenti,

**Agzamxodjayev Saidanvar Talatovich** – t.f.d., Respublika bolalar milliy tibbiyot markazining bolalar urologiyasi kafedrası mudiri,

## **Milliy klinik protokol va standartlarni Sog‘liqni saqlash vazirligining Ekspert guruhi mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan baholash bo‘yicha ekspert xulosasi:**

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

### **Protokol foydalanuvchilari:**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, markazning yuridik maqomga ega bo‘lgan filiallari, markazning Viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi negizidagi filiallari, Oliy ta‘lim muassasalari negizidagi urologiya bo‘limlari, Viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot poliklinikasi, Tuman/Shaxar tibbiyot markazlaridagi urologiya bo‘limlari, Tuman/Shahar ko‘p tarmoqli tibbiyot poliklinikasi urolog-shifokorlari va oilaviy shifokorlari.

### **Ushbu nozologiyada bemorlar toifasi.**

Uretrit bilan xastalangan bemorlar.

### **Dalillarga asoslangan tibbiyotning dalillari darajasi shkalasi.**

#### **Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi (diagnostik aralashuvlar uchun)**

<b>Dalillarning isbotlanganlik darajasi</b>	
1	Referens usul yordamida nazorat ostida o‘tkazilgan tadqiqotlarning tizimli sharhlari yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhi
2	Referens usul nazorati bilan o‘tkazilgan ayrim tadqiqotlar yoki ayrim

	randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno
3	Referens usul yordamida izchil nazoratsiz yoki o‘rganilayotgan usuldan mustaqil bo‘lmagan referens usul yordamida o‘tkazilgan tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Faqatgina muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari yoki ekspertlar xulosasi mavjud

**Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi**  
(profilaktika, davolash va rehabilitatsion aralashuvlar uchun)

<b>Dalillarning isbotlanganlik darajasi</b>	
1	Meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi
2	Ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno.
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyosiy bo‘lmagan tadqiqotlar, klinik holat yoki holatlar seriyasi tavsifi, “holat-nazorat” tadqiqoti
5	Faqatgina muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari (klinika oldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar xulosasi mavjud

**Tavsiyalarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi**

<b>Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi</b>	
A	Kuchli tavsiya (barcha ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilgan)
B	Shartli tavsiya (ayrim ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, ayrim tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va/yoki qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan)
C	Kuchsiz tavsiya (sifatli dalillar keltirilmagan, ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari, natijalar) muhim o‘rinni egallamaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati past va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan.

## **MUNDARIJA**

<b>«URETRIT» NOZOLOGIYASI DIAGNOSTKASI VA DAVOLASH BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR</b>	<b>5</b>
<b>«URETRIT» NOZOLOGIYASINING PROFILAKTIKASI VA REABILITATSIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR</b>	<b>27</b>

## Qisqartmalar ro'yxati

RIUIATM	–	Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
SChYI	–	Siydik chiqarish yo'llari infeksiyasi
PSYS	–	Pastki siydik yo'llari simptomlari
Симптомы нижних мочевых путей		
MNN	–	Xalqaro patentlanmagan nomi
ID	–	Isbotlanganlik darajasi

## 2. ASOSIY QISM.

### 2.1. Kirish.

**O'tkir uretrit** – siyish kanali shikastlanadigan yallig'lanish kasalligi bo'lib hisoblanadi. Aksariyat hollarda bu monomadaniy emas, balki mikroorganizmlar birlashmasidan kelib chiqadi [1]. Uretrit yuqumli yoki yuqumli bo'lmagan turlarda bo'lishi mumkin. Uretraning yallig'lanishi, odatda, SChYIdan boshlanadi va uni pastki siydik yo'llarining boshqa infeksiyalaridan farqlash kerak. Uretritga olib keladigan infeksiya odatda jinsiy aloqa orqali yuqadi.

### 2.2. Umumiy ta'rifi.

**Uretrit** – siyish kanalining shilliq qobig'i yallig'lanishi kasalligi [1]. Uretritning simptomlari bo'lib siyish paytida og'riq va siydik yo'llaridan shilliq-yiringli yoki yiringli oqindi hisoblanadi, ammo ko'p hollarda uretrit simptomsiz kechadi. Yuqumli sabablardan tashqari, uretrit kimyoviy, mexanik omillar ta'sirida paydo bo'lishi mumkin, shuningdek, Reyter, Bexchet va Vegener kasalligi kabi yuqumli bo'lmagan yallig'lanishli etiologiyaga ega bo'lishi mumkin. Ushbu bo'limda faqat birlamchi uretrit ko'rib chiqiladi.

**Etiologiyasi.** *N. gonorrhoeae* keltirib chiqaruvchi gonokokkli uretrit va gonokokk bo'lmagan uretrit ajratiladi, ikkinchisi nospetsifik va turli xil etiologiyaga ega bo'lishi mumkin. Kasallik qo'zg'atuvchilariga *C. trachomatis*, *Mycoplasma genitalium*, *Ureaplasma urealyticum* va *T. vaginalis* kiradi. Oxirgi ma'lumotlar etiologik omil sifatida *U. parvum* emas, balki *U. Urealyticum*- ning mumkin bo'lgan roli haqida dalolat beradi [1].

Turli qo'zg'atuvchilarni aniqlash chastotasi quyidagicha: *C. trachomatis* - 11 dan 50% gacha; *M. Genitalium* - 6 dan 50% gacha; *Ureaplasma* shtammlari - 5 dan 26% gacha; *T. vaginalis* - 1 dan 20% gacha va adenoviruslar - 2 dan 4% gacha [2, 10]. Tartibsiz jinsiy aloqalar, past ijtimoiy-iqtisodiy maqom va *N. Gonorrhoeae* va *S. Trachomatis*-ning uchrash chastotasi o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Infeksiya qo'zg'atuvchilari epiteliy yuzasida hujayradan tashqari joylashishi yoki epiteliy hujayralariga (*N. gonorrhoeae*, *C. trachomatis*) kirib, piogen infeksiyaning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Xlamidiya va gonokokklar tanosil traktining yuqori bo'limlariga kirishi va erkaklarda epididimit, ayollarda esa servitsit, endometrit yoki salypringitni keltirib chiqarishi mumkin [3].

### **2.3. Uretritlarning tasnifi.**

Klinik amaliyotda uretritlarning quyidagi ikkita tasnifidan foydalaniladi:

#### **1. Yuqumli.**

- Spetsifik - sil, gonoreya, trixomonada, *Chlamydia trachomatis*, *Trichomonas vaginalis*, *Mycoplasma genitalium*, *Ureaplasma urealyticum*.
- Nospetsifik - *Escherichia coli*, *Enterobakterii* (*Proteus*, *Klebsiella*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Enterobacter aerogenes*, *Serratia* va boshq.), *Candida species*, *Gardnerella vaginalis*.

#### **2. Yuqumli bo'lmagan.**

- allergik;
- almashinuv;
- posttravmatik;
- kongestiv.

## **3. DIAGNOSTIKA USULLARI, YONDASHUVLARI VA MUOLAJALARI**

### **3.1. Shikoyatlar, anamnez va ob'ektiv ko'rikdan o'tkazish.**

Standart tekshiruv anamnez to'plash va laboratoriya tekshiruv usullarini o'z ichiga oladi. Bemor uretradan yiringli ajralma va siyish paytida yonish hissi,

qichishishdan shikoyat qiladi. Shunday bo'lsa ham, ko'p hollarda uretrit simptomsiz kechadi.

### **3.2. Ob'ektiv ko'rikdan kechirish va diagnostika.**

Ko'rikdan o'tkazishda uretraning tashqi teshigi giperemik va shishgan. Siyish kanali palpatsiya qilinganda og'riq va uning qalinlashuvi qayd etiladi.

### **3.3. Diagnostikaning asosiy va yordamchi laboratoriya usullari.**

Uretrit simptomlari bo'lgan bemorlarda tashxis quyidagi mezonlardan biriga asoslanib qo'yilishi mumkin [2-8]:

- uretradan shilliq, shilliq-yiringli yoki yiringli ajralmalar;
- yallig'lanishni tasdiqlash bilan uretradan ajralmalarning Gram bo'yicha yoki metilen ko'k rangga bo'yalishi. Uretritning klassik mezoni bo'lib uretradan Gram bo'yicha bo'yalgan ajralma yoki surtmada yuqori aniqlikdagi mikroskop ostida ko'rish sohasida 5 yoki undan ortiq leykotsitlarning aniqlanishi hisoblanadi. Yuqori diagnostika aniqligini hisobga olgan holda, katta o'lchamda kattalashtirishda ko'rish maydoni uchun  $\geq 5$  polimorf- yadroviy leykotsitlar chegarasi taklif qilindi [4-6].
- siydik cho'kmasida katta o'lchamda kattalashtirishda ko'rish maydonida  $\geq 10$  polimorf-yadroviy leykotsitlar mavjudligi yoki birinchi portsiyada leykotsitar esterazaga musbat test.

Asosiy diagnostika usuli - uretra yallig'lanishining hujayra ichidagi gramm-manfiy diplokokklarni aniqlash bilan uretradan ajralmalarning Gram bo'yicha bo'yalishida tasdiqlanishi gonokokkli uretrit mavjudligiga ko'rsatadi. Gonokokk bo'lmagan uretrit tashxisi yallig'lanish uretradan ajralmalarning Gram bo'yicha bo'yalishi bilan tasdiqlanganda va hujayra ichidagi diplokokklar mavjud emasligida qo'yiladi.

Davolash taktikasini aniqlash maqsadida uretritning ob'ektiv tasdig'ini olish uchun har doim aniq diagnostikani (Gram bo'yicha bo'yalish, yangi chiqarilgan siydikning birinchi portsiyasini mikroskopik tahlili, leykotsitar esteraza uchun test) o'tkazish kerak.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, uretradan namuna olish vaqti muntazam klinik amaliyotda kompayentlik va qo'llanilishlik nuqtai nazaridan juda muhimdir [9].

Etiologiyani aniqlashtirish uchun yordamchi usullar - uretrit mezonlariga mos kelganda, *C.trachomatis*, *M.genitalium* va *N.gonorrhoea*, *T.vaginalis* uchun polimeraza zanjiri reaksiyasi (PZR) yordamida tahlil o'tkazish kerak, hattoki birlamchi diagnostikada gonoreya aniqlanmagan bo'lsa ham [7,10]. PZR diagnostikasi xlamidiya va gonokokk infeksiyalari diagnostikasi uchun mavjud bo'lgan boshqa testlarga nisbatan sezgirlik va o'ziga xoslik jihatidan ustundir [9]. Diagnostik ahamiyati bo'yicha siydikning birinchi portsiyasini o'rganish uretradan olingan surtmani o'rganishdan kam emas [3,10]. Davolanish kech boshlanganda va gonoreyaga PZR diagnostikasining musbat natijasida, qo'zg'atuvchining qarshilik (rezistentlik) profilini baholash uchun uretradan ajralma ekmasini o'tkazish kerak [9]. *N. gonorrhoeae* va xlamidia uchun ekmani asosan davolash va qo'llaniladigan dorilarga bardoshlilik rivojlanishini nazorat qilish samarasiz bo'lganda o'tkazish kerak bo'ladi. Trixomonadalar odatda mikroskopiyada yoki PZR-diagnostika usuli yordamida aniqlanishi mumkin [4]. Gonokokk bo'lmagan uretrit, agar davolanishdan keyin 3-4 hafta davomida simptomlar saqlanib qolsa, persislanuvchi (davomiy) deb tasniflanadi. Bunday hollarda, davolash tugaganidan keyin 4 hafta o'tgach, uretritga olib keladigan qo'zg'atuvchilar, shu jumladan *T. vaginalis* uchun PZR- diagnostikadan foydalanish kerak.

Immun-ferment tahlil (IFT-ELISA yoki qon zardobida antixlamidiya antitanachalarini aniqlash) *C. Trachomatis*, *N. Gonorrhoeae*, *T.vaginalis*ni aniqlashning eng kam sezgir va o'ziga xos usuli hisoblanadi: test-tizimga bog'liq ravishda usulning sezgirligi 20-85% ni tashkil qiladi, va u zamonaviy ko'rsatmalarda tavsiya etilmaydi. Shu munosabat bilan amaliy sog'liqni saqlash muassasalarida molekulyar-biologik diagnostika usullarini qo'llash afzalroqdir - uretraning biologik materialini *C. trachomatis*, *Gardnerella spp.*, *Atopobium vaginae*, *Sneathia spp*, *Leptotrichia spp.*, hamda *Ureaplasma parvum*, *Ureaplasma urealyticum*, *Mycoplasma hominis* mavjudligiga tekshirish. Trixomoniazni davolashdan keyin 1 yil davomida serologik reaksiyalar musbat bo'lib qoladi, bu retrospektiv diagnostika uchun juda muhimdir. Uretrit bo'lgan bemor organizmining qon zardobida yoki boshqa biologik suyuqliklarda va sekretsiyalarida aylanuvchi spetsifik gerpetikka qarshi antitanachalarni (IgM, IgG, IgA) aniqlash uchun immun-ferment tahlil usuli (IFT, immun-xemilyuminestsent-IXLT) foydalanilishi mumkin.

#### **3.4. Diagnostikaning asosiy va qo'shimcha instrumental usullari.**

Asosiy usullar bo'lib, diagnostikaning laboratoriya usullari - uretradan ajralmalarning bo'yalishi, siydik tahlili (agar kerak bo'lsa, madaniy tekshiruvlar bilan), PZR va IFT hisoblanadi. Siydik trakti urodinamikasining buzilishini va

yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarni istisno qilish uchun qo‘shimcha usullar bilan UTT, shu jumladan yorg‘oq organlarini ham, o‘tkazish kerak [ID: 2; TD:A].

### 3.5. Boshqa mutaxassislar maslahati.

Ko‘pgina hollarda, uretritni tashxislash va davolash uchun dermatovenerolog maslahati talab etiladi. Odatda C. Trachomatis (Fiessinger-Leroy-Reiter, uretro-okulosinovial sindrom, Reyter kasalligi) natijasida kelib chiqadigan uretrit, kon'yunktivit va reaktiv artritdan iborat triada sindromiga xos belgilar mavjud bo‘lganda, revmatolog maslahatidan o‘tish kerak.

Oftal’moxlamidiozda klinik ko‘rinish oddiy yoki follikulyar kon’yunktivit ("paratraxoma") shaklida namoyon bo‘ladi, bu hollarda oftalmologning maslahati zarur. Bemorda nafas olish, yo‘tal bilan kuchayadigan, shuningdek o‘ng yelkaga tarqalishi bilan birga kechishi mumkin bo‘lgan qorin og‘rig‘i bo‘lgan taqdirda; qorinning o‘ng yuqori qismini paypaslaganda og‘riq va jigarni himoya qiluvchi pastki qovurg‘alar perkussiyasida og‘riq mavjudligida; tana haroratining ko‘tarilishida, lohaslikda, tos sohasida, disparuniyada (Fitz-Hugh–Curtis sindromi), jarroh/gepatolog maslahati kerak. Uretrit bilan hastalangan bemorda, odatda, C. Trachomatis mavjudligida, o‘pkada yo‘tal, quruq yoki nam xirillashlar aniqlanganda, pulmonolog maslahati kerak bo‘ladi.

### 3.7. Differentsial tashxis va qo‘shimcha tadqiqotlarni asoslash.

<b>Tashxis</b>	<b>Differentsial diagnostika uchun asos</b>	<b>Tekshiruv</b>	<b>Tashxisni istisno qilish mezonlari</b>
Spermaning ajralishi	O‘rug‘ chiqarish oqimlarining zaif ohangi belgisi, bu o‘z navbatida surunkali yallig‘lanish jarayonlari natijasida paydo bo‘ladi.	Laborator tekshiruvlar/ ajralmalar tekshiruvi	Uretritda, leykotsitlar, shilliq va seroz ekssudati aralashmasi bo‘lgan yiringli-shilliq sut bezlari uretritning simptomlari bo‘lib hisoblanadi.
Surunkali prostatit	Achishish hissi va kichik portsiyalar bilan tez-tez siyish	Laborator tekshiruvlar/ Meares-Stamey namunasi	Laboratoriya tahlillariga ko‘ra (Meares-Stamey namunasi), leykotsitlar soni prostata sekretyasida va 4 ta portsiyada oshadi.

Uretra toshi	Achishish bilan siyishning qiyinlishuvi, uretradan shilliq-gemorragik xususiyatli ajralmalar	Uretrani paypaslash; laborator tekshiruvlar – siydik tahlili, uretradan surtma; siydik yo‘lining pastki bo‘limi rentgenografiyasi; \endoskopik tekshiruv	Tosh uretraning old bo‘limida joylashishida, uni paypaslab aniqlash mumkin; siydik tahliliga ko‘ra, piuriya mavjud emas, uretradan olingan surtmada kokklar florasi yo‘q. Umumiy rentgenografik tasvirda toshning soyasi aniqlanadi. Shubhali holatlarda - uretroskopiya.
Balanopostit	kertmak, giperemiya va kertmak terisining shishishi, priputsial xaltachadan yiringli ajralma bo‘lgan bemorlarda	Laborator tekshiruvlar/ ajralmalar tekshiruvi	Siydik tahliliga ko‘ra, piuriya mavjud emas, uretradan olingan surtmada kokklar florasi yo‘q.

## **4. AMBULATOR DARAJADA DAVOLASH.**

### **4.1. Dori vositalarsiz (nomedikamentoz) davolash.**

Infektsiya sabab bo'lgan uretritni dori vositalarisiz davolash ko'zda tutilmagan.

### **4.2. Dori vositalari bilan (medikamentoz) davolash.**

Uretritning og'ir kechishida, tashxis qo'yilgandan keyin empirik terapiyani boshlash mumkin. Yengil simptomlarda PZR-diagnostika natijalari olinmaguncha davolashni kechiktirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, maxfiylikni saqlab qolgan holda, xavf guruhidagi barcha jinsiy sheriklarni tekshirish va davolash kerak [10].

#### *Gonokokk uretrit.*

Gonokokk uretritda bakteriyalar rezistentligining kuchayishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli xil ta'sir mexanizmlariga ega bo'lgan ikkita antibiotikdan foydalangan holda kombinirlangan terapiya tavsiya etiladi [1,6]. Birinchi qator sifatida seftriaksonni 1 g dozada m/i yoki t/i-ga og'iz orqali 1 g eritromitsin bilan qo'llash tavsiya etiladi. Shuningdek, boshqa dorilar bilan solishtirganda yaxshi komplayentligi tufayli bir martalik qabul qilish va *C. trachomatis* koinfektsiya xavfi mavjudligi tufayli azitromitsin tavsiya etiladi. Agar azitromitsinga allergiya bo'lsa, doksitsiklinni seftriakson yoki sefiksim bilan birgalikda qo'llash mumkin. Seftriaksonga muqobil variant sifatida sefiksimni 400 mg dozada og'iz orqali qabul qilish tavsiya etiladi, ammo ushbu preparat kamroq darajada yaxshi farmakodinamik xususiyatlarga ega va rezistentlikning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin [7,10]. Makrolidlariga rezistentlikning kuchayishini oldini olish uchun odatda azitromitsin bilan monoterapiya tavsiya etilmaydi [5]. Spektinomitsinning 2 g dozada m/i-ga bir martalik qo'llash 96% dan ko'proq hollarda mikrobiologik sog'ayishni ta'minlaydi [8,10] va tanosil tizimining gonoreyasini davolashda maqbul variant bo'lib ko'rinadi.

#### *Gonokokk bo'lmagan uretrit.*

Aniqlangan uropatogensiz gonokokk bo'lmagan uretritda terapiyaning birinchi qatori bo'lib, 7 kun davomida kuniga 2 marta 100 mg-dan doksitsiklinni qo'llash hisoblanadi. Muqobil variant sifatida azitromitsinni 500 mg (1-kun) va 2-kundan 4-kungacha 250 mg dozada buyurish mumkin. Xlamidiyal uretritda azitromitsinning 1 g dozadagi bir martalik dozasi samaradorligi bo'yicha 7 kun davomida kuniga 2 marta 100 mg dozada qabul qilingan doksitsiklin bilan

tenglashtirish mumkin. Ftorxinolonlar, masalan, ofloksatsin yoki levofloksatsin, faqatgina boshqa dorilarni qo‘llash mumkin bo‘lmagan hollarda ikkinchi qator dori preparatlari bo‘lib hisoblanadi. U. urealyticum aniqlanganda, 7 kun davomida kuniga 2 marta 100 mg dozada doksitsiklinning samaradorligi 1 g dozadagi azitromitsinning bir martalik qabul qilinishi bilan tenglashtiriladi. T. Vaginalis-dan kelib chiqqan uretritda terapiyaning birinchiqatori bo‘lib 2 g dozada metronidazol yoki tinidazolning bir martalik og‘iz orqali qabul qilish hisoblanadi.

### Uretritda asosiy dori vositalari ro‘yxati

Farmakoterapev-tik guruh	Dori vositasining XPN	Qo‘llash usuli	Isbotlanganlik darajasi	Havolalar
Ftorxinolonlar	Ofloksatsin 400mg	400-800 mg/sut	1b	<a href="https://medicl-ab.com/drugs/e2d435dc-ca88-43d5-a660-5f95920e6601">https://medicl-ab.com/drugs/e2d435dc-ca88-43d5-a660-5f95920e6601</a>
	Siprofloksatsin 500 mg	kuniga 2 marta 10-14 kun	1b	<a href="https://medicl-ab.com/drugs/6fabbb0f-b6e8-4137-bcd4-208034b26f53">https://medicl-ab.com/drugs/6fabbb0f-b6e8-4137-bcd4-208034b26f53</a>
	Levofloksatsin 500 mg	500 mg/sut	1b	<a href="https://medicl-ab.com/drugs/248735dc-83fe-44c0-8f1f-469665e4e4bb">https://medicl-ab.com/drugs/248735dc-83fe-44c0-8f1f-469665e4e4bb</a>
	Moksifloksatsin 400 mg	kuniga 2 marta 10-14 kun	1b	<a href="https://medicl-ab.com/drugs/14a33bde-e3ee-415c-be60-709966618acd">https://medicl-ab.com/drugs/14a33bde-e3ee-415c-be60-709966618acd</a>
Sefalosporinlar	Seftriakson 1,0 g	2,0 g/sut 24 soat o‘tgach kuniga 1 marta 7 kun	1b	<a href="https://mediclab.com/drugs/75e2a245-aaa0-4119-b31a-0fbfde9069cc">https://mediclab.com/drugs/75e2a245-aaa0-4119-b31a-0fbfde9069cc</a>

	Sefeksim 400 mg	400 mg bir marta	1b	<a href="https://mediqlab.com/drugs/e470ee9a-22cf-45c6-9b14-9afc32361ea1">https://mediqlab.com/drugs/e470ee9a-22cf-45c6-9b14-9afc32361ea1</a>
	Sefoperazon + sulbaktam 1,0 g + 0,5 g yoki 1,0 g	2,0 g/sut	1b	<a href="https://mediqlab.com/drugs/36e48038-8430-494c-bb76-0e1b6fd011eb">https://mediqlab.com/drugs/36e48038-8430-494c-bb76-0e1b6fd011eb</a>
Tetratsiklin guruhi	Doksitsiklin 100 mg	100 mg dozada kuniga 2 marta 7 kun	1b	<a href="https://mediqlab.com/drugs/fba70a59-43de-4c6b-8e73-bd61d35e7b0f">https://mediqlab.com/drugs/fba70a59-43de-4c6b-8e73-bd61d35e7b0f</a>
Makrolidlar	Azitromitsin 250 mg	500 mg dozada (1-kuni) va 250 mg-dan 2-kundan 4-kungacha	1b	<a href="https://mediqlab.com/drugs/1c16f10a-66ca-4a63-8331-07063752edf2">https://mediqlab.com/drugs/1c16f10a-66ca-4a63-8331-07063752edf2</a>
	Eritromitsin 500 mg	1 g dozada, bir marta	1b	<a href="https://mediqlab.com/drugs/2fa2fb40-e79d-41a2-a7ca-e6092623225d">https://mediqlab.com/drugs/2fa2fb40-e79d-41a2-a7ca-e6092623225d</a>
Aminoglikozidlar	Spektinomitsin 2g	2 g dozada m/o bir marta	1b	<a href="https://mediqlab.com/mnn/5f737a40-f02e-4068-9d2c-bdfa1a313b75">https://mediqlab.com/mnn/5f737a40-f02e-4068-9d2c-bdfa1a313b75</a>
Parazitlarga qarshi	Metronidazol 250 mg	2 g ichiga bir marta	1b	<a href="https://mediqlab.com/drugs/652d3926-006d-45d8-9ebd-4b3c3e17920f">https://mediqlab.com/drugs/652d3926-006d-45d8-9ebd-4b3c3e17920f</a>
	Tinidazol 500 mg	2 g ichiga bir marta		

*Eslatma: O'tkir orxoepididimitda qo'llaniladigan dori preparatlarining dozasi va miqdori shifokor tomonidan individual ravishda belgilanadi.*

Uretritda fitoterapiya — bu o'simlik vositalaridan foydalanish orqali simptomlarni yengillashtirish va tiklanishni tezlashtirishni o'z ichiga oladi. Quyidagi mashhur o'simliklar va ularning ta'sirlari:

1. **Kalendula** — antiseptik va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi, siydik chiqarish tizimidagi yallig'lanishni kamaytirishga yordam beradi.
2. **Mingyillik** — yallig'lanishni kamaytiradi va shilliq qavatning tiklanishiga yordam beradi.
3. **Diuretik o'simliklar (masalan, soya, medunitsya)** — ortiqcha suyuqlikni chiqarishga va shishishni kamaytirishga yordam beradi.

### 4.3. Jarrohlik aralashuvi.

Ushbu patologiyada talab etilmaydi.

### 4.4. Keyingi olib borish.

Uretrit bo'yicha har qanday dori vositalari bilan o'tkazilgan terapiyadan keyin, davolanish tugagandan so'ng 2-6 hafta o'tgach, nazorat tekshiruvini o'tkazish kerak.

### 4.5. Davolash samaradorligi va usullarning xavfsizligi indikatorlari.

Uretritni davolash samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- *Klinik simptomlarning yaxshilanishi.* Uretradan ajralma, dizurik hodisalar, uretra meatusi sohasida shish yo'qligi, shuningdek bemorning umumiy ahvolidagi yaxshilanishi.
- *Laboratoriya ko'rsatkichlarining normallasishi.* Leykotsituriya va bakteriuriyaning kamayishi yoki yo'qolishi. Uretradan olingan surtmada patogen mikroorganizmlarning mavjud emasligi.
- Asoratlarning yo'qligi. Orxoepididimit, uretra abstsessi, uretra strikturasi kabi asoratlarning rivojlanishining yo'qligi.

Ambulator davolash usullarining xavfsizligi quyidagi omillar asosida aniqlanadi:

- Jiddiy nojo'ya ta'sirlar mavjud emas. Dori vositalariga allergik reaksiyalar yoki davolashga tuzatish kiritishni talab qiladigan boshqa salbiy ko'rinishlar kabi jiddiy nojo'ya ta'sirlarning paydo bo'lishini baholash.
- Tavsiyalar va davolash rejimiga rioya qilish. Bemorning davolanish samaradorligi va xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan dori-darmonlarni qabul qilish, ovqatlanish va suyuqlik ichish rejimi bo'yicha shifokor tavsiyalariga rioya qilish darajasini nazorat qilish.

Ushbu indikatorlar uretrit bo'yicha ambulator sharoitda davolanayotgan bemorlarni davolash natijalarini baholashga va ularning xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

## **5. SHIFOXONAGA YOTQIZISH UCHUN KO'RSATMALAR**

### **5.1. Rejalashtirilgan shifoxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar.**

- **Rejalashtirilgan statsionar sharoitda davolash.** Agar bemorga statsionar terapiya talab qilinsa, bemor rejali ravishda shifoxonaga yotqizilishi mumkin.
- **Davolash rejasini ishlab chiqish.** Agar bemorda uretrit bo'lsa, laboratoriya va bakteriologik tekshiruvlar asosida antibakterial terapiya usulini ishlab chiqish kerak.

### **5.2. Shoshilinch shifoxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar.**

Shoshilinch kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar - isitma yoki tanosil trakti tomonidan asoratlar - orxiepididimit, o'tkir prostatit.

## **6. STATSIONAR DARAJADA DAVOLASH TAKTIKASI.**

### **6.1. Bemorni kuzatish kartasi, bemorni yo'naltirish.**

#### **6.1.1. Bemorni kuzatish kartasi:**

- Shaxsiy ma'lumotlar: bemorning ismi, yoshi, aloqa ma'lumotlari.
- Kasallik tarixi haqida ma'lumot: oldingi kasalliklari, jarrohlik aralashuvlari, allergiya va boshqa tibbiy xususiyatlar.
- Joriy simptomlarning tavsifi: bemor uretra sohasida og'riq, sanchiqli og'riq, achishish va noqulaylikdan shikoyat qiladi.
- Fizik ko'rikdan o'tkazish: tashqi jinsiy a'zolar, ortiqlar va urug' tizimchasini umumiy baholash.
- Laboratoriya tekshiruvlari natijalari: umumiy qon tahlili, uretradan surtma kabi laboratoriya tahlillari, agar kerak bo'lsa, ajralgan suyuqlikning bakekmasi va 2 portsiyali siydik tahlili yallig'lanish jarayonlarini aniqlashga yordam beradi.
- Tashxis: uretrit tashxisini qo'yish.
- Davolashning tibbiy rejasi: davolash bo'yicha buyurishlar, shu jumladan olingan tadqiqot natijalari asosida antibakterial terapiyani tanlash.

- Kuzatishlar va tavsiyalar: bemorning ahvoli vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini qayd etish va tibbiyot xodimlarining tavsiyalari.

### **6.1.2. Bemorni yo'naltirish (1-rasmga qaralsin):**

- Shoshilinchlikni baholash. Tibbiy yordam qanchalik tezkor zarurligini baholash.
- Tibbiyot muassasasini tanlash: davolash ambulatoriya sharoitida o'tkaziladimi yoki shifoxonaga yotqizish zarurmi yoki yo'qligini hal qilish.
- Aloqa o'rnatish: o'z vaqtida va malakali yordamni ta'minlash uchun shifokorlar, hamshiralar va boshqa mutaxassislar o'rtasidagi aloqa o'rnatish va muvofiqlashtirish.

### **6.2. Nomedikamentoz davolash.**


Nomedikamentoz davolash choralari ambulator davolash bo'limida tavsiflangan.

### **6.3. Medikamentoz davolash.**

Medikamentoz davolash choralari ambulator davolash bo'limida tavsiflangan.

### **6.4. Jarrohlik aralashuvi.**

Jarrohlik aralashuvi ko'zda tutilmagan...



**1-rasm. Bemorning marshrut kartasi.**

### 6.5. Keyingi olib borish.

Uretrit bo'yicha har qanday medikamentoz terapiyadan so'ng, davolashdan 2-6 hafta o'tgach, nazorat tekshiruvini o'tkazish kerak.

### 6.6. Davolash samaradorligi va usullarning xavfsizligi indikatorlari.

Davolashning samaradorligi va tashxislash va davolash usullarining xavfsizligi indikatorlari tegishli bo'limda avval tavsiflangan.

**«URETRIT» NOZOLOGIYASINING PROFILAKTIKASI VA  
REABILITATSIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR**

**Тошкент - 2025**

## **1. ASOSIY QISM**

### **1.1. Kirish.**

Patologiyaning dastlabki bosqichlarida yaxshi natijaga erishish uretritning asosiy simptomlarini bartaraf etishga yordam beradi. Agar bemorda kasallik simptomlari paydo bo'lsa, dori vositalari bilan davolash amalga oshiriladi, bu 99% hollarda ijobiy samara beradi. Biroq, noto'g'ri medikamentoz aralashuv asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- O'tkir bakterial prostatit - prostata bezining yallig'lanishi;
- Epididimit, orxiepididimit – moyak ortig'i va moyakning yallig'lanishi;
- Uretraning strikturasi.

Profilaktikaning 100 foiz samarali usullari mavjud emas, chunki kasallikning paydo bo'lishi turli xil omillar va sabablarga bog'liq. Kasallikning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun erkak jinsiy a'zolarining gigiyenasiga rioya qilishi, jinsiy aloqa paytida himoya vositalaridan foydalanishi va jarrohlik yoki manipulyatsiya paytida uretral kateterlardan foydalanganda antiseptik me'yorlarga rioya qilishi kerak. Achchiq ovqatlar va spirtli ichimliklarni istisno qilish muhimdir.

### **1.2. Ta'rif.**

